



SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH

Tojiyeva Muxlisa Samidin qizi

Mirzo Ulug 'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya: Savod o'rgatish davrida o'quvchilar nutqini o'stirish

Ta'larning yangi mazmuni o'quvchilarning har tomonlama kamol topishga, ularni faollashtirishga qaratilgandir. Ayniqsa, bolalarni xat-savodga o'rgatish, luq'atni boyitish

nutqlarni rivojlantirish orqali boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishga erishmoq lozim.

Kalit so'zlar. Savod, nutq, so'z, ravon o'qish, talaffuz, bo'g'in.

Xat savod o'rgatish ta'larning muhim bosqichi bo'lib, bu davrda o'quvchilarga to'g'ri

o'qish, chiroyli yozish hamda o'qiganlarni so'zlab berish o'rgatiladi. Nutqni gaplarga gapni

so'zlarga so'zni bo'qinlarga ajratish tovushlarni eshitib va talaffuz qilib bir-biridan farqlash

so'zda tovushlarning birin-ketinligiga e'tibor berishni ham bilib olishlari ta'minlanadi.

Bolalarning nutqni o'stirishda kesma harflar bilan ishlashga o'rgatish alohida ahamiyat kasb

etadi. Ular yordamida bolalar boq'inlar tuzishga tez o'rganadilar. Ochiq va yopiq bo'q'inlarni

turli ko'rinishdan to'zilgan gaplar tuzishni ham mashq qiladilar. Kichik matnlarni ovoz chiharib

bo'g'inlab ongli to'g'ri va ravon o'qishda o'rganadilar. Bu davrda bolalarni sidirqa ya'ni

so'zlarni bo'g'inlab o'qishlariga aloqida ahamiyat berish lozim. Bola avval ichida bo'g'inlab

o'qish so'ng ovoz chiharib so'zni butunicha aytish o'qish yozuv bilan uzviy boq'lab olib

boriladi. Bu usul bolalarning oqzaki va yozma nutqning baravar rivojlantirishga yordam beradi.

O'qish darslarida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga boq'lab yozish so'z va gaplarni kichik

hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi. Xat savod o'rgatish



davrida bolalarni bosma harflar bilan yozma harflarning o'xshash tomonlarini farqlab bosma
harflarni yozma ravishda ko'chirib yozishga ham o'rgatish foydalidir. Chunki ular ko'pincha bosma harflarni aralaShtirib yozib qo'yadilar. Shunday paytda ular e'tiborini yozuv namunalariga jalg qilish, yozuvlarini to'g'ri va chiroqli bo'lishiga erishmoq lozim. Bolalarning oq'zaki nutqini rivojlantirish ishlari ham bu davrning asosiy vazifalaridan biridir. Alifbe davrida bolalarga tovush talaffuziga mos keladigan so'zlar tanlanadi. Bolalarni yozuvga o'rgatishda dastlab yozilishi talaffuziga mos keladigan so'zlar tanlanadi. Bolalarni yozuvga o'rgatishda so'z tarkibidagi harflarning to'g'ri aniq yozilishi va qo'shilishiga daftarlarni ozoda tutishga bolalar e'tibori tortiladi. Bu davrdagi darslarni maqsadga muvofiq tashkil etish o'quvchilar bilimining k elgusida pishiq-puxta bo'lishiga mustahkam zamin yaratadi. Savod o'rgatish ishlarini to'g'ri tashkil qilish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim: 1. Ta'limning didaktik jixatlariga e'tibor berib uni so'nggi yutuqlar bilan to'ldirib borish; 2. O'quvchilarning yosh va fiziologik jiqatlariga e'tibor berish; 3. Ularda mustaqil faoliyatni rivojlantirish usullarini keng qo'llash; 4. O'qish va yozishning uzviyligiga e'tibor berish; 5. Alifbo va unga qo'shimcha materiallardan ijodiy foydalanish; Maktabda o'quvchilarning oqzaki va yozma nutqini o'stirish uchun kurash barcha o'qituvchilarning ayniqlasna ona tili o'qituvchilarining asosiy vazifasi sanaladi. O'quvchilar nutqini o'stirish ularga o'z halqining adabiy tilini o'rgatish demakdir. Adabiy til esa normaShtirilgan qonun-qoidalari til. Ona tili o'qituvchisi o'quvchilarni ana shu adabiy tilda so'zlashga odatlantira borish kerak. O'qituvchining nutqni o'stirish ishi bola maktabga 1-qadam qo'ygan kunidan

boshlanadi. Nutq ko'nikmalari izchil ravishda olib borilgan amaliy ishlar natijasidagina hosil bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi grammatikaning har bir bo'limiga oid mashqulotda o'tilgan mavzu asosiyda o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini o'stirishga e'tibor berishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarni matnni to'g'ri ,ifodali, ravon talaffuz etishiga katta e'tibor berishi kerak. Bu ko'nikmaga dastavval nutqning ixcham,sodda va ravon mazmundor bo'lishi kiradi. Shuning uchun har bir grammatika va imlo darsida nutq o'stirishi o'qituvchining diqqat markazida turishi, o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish va so'z boyligini kengaytirish birinchi darajali vazifa qilib qo'yilishi Shart. Savod ta'limida o'quvchining nutq o'stirishda bir turdagи mashq'ulotlar o'zoq davom etsa o'quvchilar tez charchab qoladi. Shuni hisobga olib mashqulotlarning turi va usullarini o'zgartirib turish maqsadga muvofiqliр. Shuningdek, dastlabki mashq'ulotlar ta'sirchanlik va mu'jizakorlik jihatidan yo'qsak darajada bo'lishi kerak. Chunki bolalar yozish va o'qishdek aqliy faoliyatga birdaniga kirisha olmaydilar. Savod ta'limning adabiy til meyorlariga rioya qilgan holda olib borilishi qisqa va lo'nda ta'sirchan va tabiiy muloyim va ravon bo'lishi bolalar jamoasini tashkil etishda katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarning nutqini mukammal rivojlantirish uchun o'qituvchi ko'p izlanishi va ko'p bilim malaka va ko'nikmaga ega bo'lmoq'i lozim. Zero, kelajagimiz bo'lmish bolalar o'z ustozlari bilan faxrlanib yurishsin!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Abdullaeva,K.Nazarov,Sh.Yo'ldosheva "Savod o'rgatish metodikasi" T."O'qituvchi" 1996.
2. Ro'ziboyeva O'. "Boshlang'ich sinf o'quvchilari unli va undosh tovushlarni o'rGANISH bilan og'zaki nutqni o'stirish" T. 1996.
3. K.Qosimova "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" T."O'qituvchi" 1985.